ISLOM DINIDA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Botirov Sarvar Bahrom o'g'li

@sarvar.botirov.1771

+998 990569503

TDTU 1-Davolash fakulteti talabasi

turdimatovamuhayyo6@gmail.com

+998942952511

TDTU 1-Davolash fakulteti talabasi

jamshidovnamarjona06@gmail.com

Аннотация: Ushbu maqola vijdon va e'tiqod erkinligi tushunchasini tarixiy, huquqiy va falsafiy nuqtayi nazardan o'rganadi. Mazkur erkinlikning xalqaro huquqdagi o'rni, uning davlat va din o'rtasidagi munosabatlarga ta'siri, hamda zamonaviy jamiyatlarda amaliy tatbiqi tahlil qilingan. Vijdon va e'tiqod erkinligi insoniyatning eng asosiy huquqlaridan biri sifatida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: erkinliklar, shaxsiy huquq, shaxsiy adovatlar, fuqarolar, falsafiy.

Аннотация: В данной статье исследуется концепция свободы совести и вероисповедания с исторической, правовой и философской точек зрения.

Анализируется место этой свободы в международном праве, её влияние на отношения между государством и религией, а также практическое применение в современных обществах. Свобода совести и вероисповедания рассматривается как

одно из основополагающих прав человечества.

Ключевые слова: свободы, личное правочеловечества.

Ключевые слова: свободы, личное право, личная неприязнь, граждане, философский.

Abstract: This article explores the concept of freedom of conscience and religion

from historical, legal, and philosophical perspectives. It analyzes the role of this freedom

in international law, its impact on the relationship between state and religion, and its

practical application in modern societies. Freedom of conscience and religion is examined

as one of the fundamental rights of humanity.

Keywords: freedoms, personal right, personal animosities, citizens, philosophical.

KIRISH. Inson huquqlari masalasi zamonaviy dunyoda eng dolzarb mavzulardan

biri hisoblanadi. G‘arbiy huquq tizimida inson huquqlari asosan ijtimoiy shartnomanatijasi deb qaralsa, Islomda bu huquqlar Yaratuvchi tomonidan berilgan ilohiy in’om va

omonat sifatida talqin etiladi. Qur’oni Karimning "Isro" surasi 70-oyatida: "Darhaqiqat,

Biz Odam bolalarini aziz va mukarram qildik..." deb marhamat qilinadi. Bu oyat Islomda

inson huquqlari deklaratsiyasining poydevori hisoblanadi.Diniy erkinlikni ta’minlash

bevosita insonning Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan shaxsiy huquq va

erkinliklarini ta’minlash demakdir. Afsuski, ayrim shaxslar tomonidan qonunni

qo’llashdagi xatoliklar va shaxsiy adovatlar sabab qanchadan-qancha insonlarga nohaq

ravishda “diniy ekstremist” sifatida ayblov hukmi o’qilgan yoki ular ta’qib ostiga olingan.

Bu holatlarni bartaraf etmasdan turib, inson huquqlarini to’liq kafolatlash mumkin emas,

albatta. Yuqoridagi kabi holatlarni tahlil qilgan holda, qonunchilikni takomillashtirsh

yuzasidan 19.08.2020 yilda ushbu qonuning yangi tahriri muhokama uchun taqdim etildi.

Amaldagi qonunga tuzatishlar va qo’shimchalar kiritish bilan birga, yangi tartib taomillar

va o’zgarishlar joriy etilishi kutilmoqda. Xususan, qonunda Diniy ta’lim, konfessiya,

missionerlik, prozelitizm, mahalliy diniy tashkilot, diniy ta’lim muassasasi hamda diniy

mazmundagi material kabi atamalarga ta’rif berilmoqda va ularning qo’llanishiga doir

normalar kiritilmoqda, “xususiy tartibda diniy ta’lim berish” jumlasi “ota-onalarning yoki

ularning o’rnini bosuvchi shaxslarning o’z farzandlariga diniy ta’lim berishimustasnodir” degan qo’shimcha bilan to’ldirilmoqda, fuqarolarning jamoat joylarida

diniy libosda yurishiga doir cheklov olib tashlanmoqda, ushbu sohada foliyat

ko’rsatuvchi organlarning vakolatlari belgilanmoqda, diniy tashkilotlarning buzilgan

huquqlari yuzasidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanmoqda va ushbu

mazmundagi shikoyatlar davlat boji to`lashdan ozod qilinmoqda, diniy tashkilotlarning

huquq va majburiyatlari belgilab berilmoqda, qonunga xilof bo’lmagan diniy adabiyot va

materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish huquqi faqatgina diniy tashkilotning

markaziy organiga emas, balki barcha jismoniy va yuridik shaxslarga berilmoqda, diniy

tashkilotlarni ro’yxatdan o’tkazishdagi davlat xizmatlari ko’rsatish tartibi belgilanmoqda

va boshqa shu kabi o’zgarishlar ko’zda tutilmoqda.

Insonning e’tiqod va vijdon erkinligiga bo‘lgan asosiy huquqi – Inson huquqlari

to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyada mustahkamlangan huquq haqida gapirar ekanmiz buhuquq har bir shaxsning qadr-qimmati va muxtoriyati uchun muhim bo‘lib, erkin va

demokratik jamiyatning tamal toshi hisoblanadi. E'tiqod va vijdon erkinligi diniy, falsafiy

yoki axloqiy xarakterga ega bo'lishidan qat'i nazar, o'z e'tiqodiga ega bo'lish va uni ifoda

etish huquqini o'z ichiga oladi. Shuningdek, u o'z e'tiqodlarini o'zgartirish va ularni hech

qanday aralashuv va kamsitishlarsiz amalga oshirish erkinligini ham o'z ichiga oladi. Bu

huquq har bir shaxsning shaxsiyati va daxlsizligi uchun asos bo'lib, u hech qanday

istisnosiz himoyalanishi va ta'minlanishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, keling, e'tiqod va vijdon erkinligini umuminsoniy huquq

sifatida qo'llab-quvvatlashga sodiqligimizni yana bir bor tasdiqlaylik. Keling, har bir

inson o'z e'tiqodiga ko'ra qo'rquv va xurofotsiz yashashi mumkin bo'lgan dunyoni yaratish

uchun birgalikda harakat qilaylik. Endi tanganing ikkinchi tomonini o‘giraman. Hop,

vijdon erkinligi berilibdi deb qolipdan chiqib ketishimiz va dahriy yoki atiest bo‘lib

qolishimiz kerak degani emas. Alloh taoloning Qur’oni Karimda keltirgan oyatlarida ham

insonlar e’tiqodi uchun eng maqbul yagona din bu Islomdir deb aytilgan. Bu degani

e’tiqod erkinligi o‘zimda deb har kim boshlagan turli xil oqimlarga kirib ketish yoki dinni

yuzga niqob qilib boshqalarni turli e’tiqodlarga majburlash degani emas. Biz insonlarda

doim ikki xil qarash bo’lgan. Vijdon va e’tiqod erkinligi bu bir biridan ayro bo‘lmaydigan

tushunchalar mening nazarimda. Lekin bu ikki dunyoni bir biridan ayro turib, turli talqinqilib, birini tanlab, ikkinchisidan voz kechib ham bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Inson huquqlari islomda". Toshkent, "Hilol-nashr", 2018.

2. S.M. Islom. "Islomda inson huquqlari va erkinliklari". Toshkent, 2015.

3. Shadiyeva D. K. Rus tili normalarining o‘zgarish tendensiyalarini ekstrapolyatsiya qilish va o‘rganish // Filologiyaning zamonaviy muammolari. – 2022. – 133-138-betlar.

4.Шадиева Д. К. Изучение характера изменений норм русского языка //Ученый XXI века. – 2022. – №. 8 (89). – С. 27-32.